

FICTION - PHILOSOPHY OF LIFE

Matkarimova Feruzabonu Aljon qizi

Andijan region, Ulugnor district,

Student of OSHMU.

They say it's good to go back to Mazi. (**Abdullah Qadiri**)

Annotation: In this article, the poetry of our grandmothers in dangerous times, including Nodira, Anbar Otin, Khojanazar Huvaydo, Uvaysi's activity, Odil Yakubov, Utkir Hoshimov, Olmas Umarbekov, Abdulla Aripov, Muhammad Yusuf, Oybek, Hamid Olimjon, Said Ahmad, Abdulla Qahhor, Pirimqul Qodirov, Uncle Murod.

Keywords; Navoi Khanate, Babur Khanate, Lutfi Khanism, Mashrabkhanism, "Literature or National Poems" series, "My Grandmothers", "Ice Cream".

BADIY ADABIYOTLAR- HAYOT FALSAFASI

Matkarimova Feruzabonu Aljon qizi

Andijon viloyati,Ulug'nor tumani,

O'SHMU talabasi.

Moziyga qaytib ish ko'rishlik xayrlik,deydilar. (**Abdulla Qodiriy**)

Anatatsiya: Ushbu maqolada momolarimizning tahlikali zamondagi she'riyati, jumladan, Nodira, Anbar Otin, Xo'janazar Huvaydo, Uvaysiy faoliyati, Odil Yoqubov,O'tkir Xoshimov,O'lmas Umarbekov,Abdulla Oripov,Muhammad Yusuf,Oybek,Hamid Olimjon,Said Ahmad,Abdulla Qahhor,Pirimqul Qodirov,Tog'ay Murod.

Kalit so'zlar; Navoiyxonlik,boburxonlik,lutfiyxonlik,mashrabxonlik , “Adabiyot yoxud milliy she'rlar” turkumi, “Ayajonlarim”, “Muzqaymoq”

O'tgan asrning boshlaridan juda ko'plab,badiiy,ilmiy,sahna asarlari yaratildi.Yigirmanchi asr boshlarida bir muncha kitobxonlar davrasi ko'zni quvontirar darajada bisyor edi.Uzun qish kechalarida oilaviy navoiyxonlik,boburxonlik,lutfiyxonlik,mashrabxonlik,momolarimiz Nodira,Anbar otin,Xo'janazar Xuvaydo,Uvaysiy yozgan g'azallarini qatorma-qator tahlil etardik. Biror kunimiz badiiy asar o'qish bilan,uni muhokama qilish bilan o'tmas edi. Zamon shiddatli o'zgaroyotgan bir paytda,inson qilmoqchi bo'lgan ishlarni qandaydir texnika vositalari amalga oshirmoqda.Qadimda maktubni kabutar yoki chopar orqali jo'natishgan,unda kutish biroz uzoqroq bo'lgan,bugungi zamonaviy qurilmalar yordamida tez amalga oshirish mumkin. Ammo badiiy adabiyotning o'rnini bu texnikalar bosolmaydi. O'tgan asr adabiyotiga murojaat qilganimizda, Odil Yoqubov,O'tkir Xoshimov,O'lmas Umarbekov,Abdulla Oripov,Muhammad Yusuf,Oybek,Hamid Olimjon,Said Ahmad,Abdulla Qahhor,Pirimqul Qodirov,Tog'ay Murod-buyuk adiblar hayotiga nazar solganimizda,ular yaratgan,yozib qoldirgan buyuk-adabiy meroslar tokchada chang bosib qolib ketmayaptimikan? Ularning asriy orzusi balki,shunday bo'lgandir; “O'g'riq tishlar” bizdan, o'ksinsa “Ayajonlarim” ko'ksini mushtlab yig'laydi,xalq “Bemor” bo'lganda ko'ngiliga “Muzqaymoq” yeyish sig'adimi“Muzqaymoq” “go'riston to'g'risida kim eshitgan bo'lsa,Unsin ham shuni eshitgan,shamol kechasi dodxo xayolida go'riston qandoq daxshatlbo'lsa,uning xayolida ham shunday daxshatl,lekin shundoq bo'lsa ham,tiriklar go'risoni bo'lgan bu dargohning daxshati oldida o'liklar go'ristonining daxshati unga ko'rinas,bundan tashqari edi” kabi so'z qo'llash san'ati, ustoz Said Ahmadning “bizning it qalay,xoh ishoning,xoh ishonmang,birinchi kuniyoq to'qqiz tonna paxtateribman,bu itni taniyman,”kulguga boy satiralari.Shunday buyuk asarlar yaratish payti kelmadikiman? Zamonaviy o'zbek adabiyotiga murojaat qilganimizda, Ulug'bek Xamdam “Muvozanat”ni saqlab,Iqbol Mirzoning “Bonu” dardiga quloq tutdi va bugungi kunda ayrim kitob mutolaasiga befarq bo'layotgan yoshlar to'g'risida kuyinib so'zlatdi, Javlon Jovliyev

“Qo’rqma” aziz kitobxon, “Ming quyosh shu’lasi” bizga zarrin nurlarini sochadi, deb aytdi. Zamonaviy va milliy mumtoz o’zbek adabiyotini jamlab bugungi kunda ingлиз tili, rus tili va koreys tilida (she’r, qatra, badia...) tarjima qilib, yaxlit bir qolipga kelsa, kitobxonlar qo’liga yetib borajak. (shunga harakatdamiz, muallif). Yaqindagina ikki davlat rahbarlari Qizg’iziston va Prezidentimiz bilan bo’lgan uchrashuvlar chog’ida, ikki mamlakat o’rtasida turli kelishuvlar, qarorlar, shartnomalar imzolandi. Qирг’изистон Prezidenti Sadir Japarov toshkentga tashrifi cho’gida; “O’zbekistonga borganda rosa uyaldim, bizdan 40-50 yil oldinda o’tib ketibdi”. Demak, beshta tashabbus joriy etilganidan, buyon juda ko’p rijovlanish boshqichlari, har tomonlama yoshlarni qo’llab-quvvatlash, vatanimizni yanada yuksaltirish, har birimiz o’zimiz istiqomat qilayotgan mahallada, tuman va viloyat hokimliklari jam bo’lib, jadid bobolarimiz qoldirgan buyuk sahna asrlari asosida resbuplikamiz bo’ylab teatr truppalari tashkil etilsa, yoshlar, o’sib kelayotgan jajji avlod vakillarining dunyo qarashi, ertangi kunga katta ishonch, ajdodlar bizdan kutayotgan, qurmoqchi bo’lgan kelajagimizni poydevori shu orqali bo’lsa, ne ajab? O’sha zamonlarda mashhur bo’lgan Mahmudxo’ja Behbudiyning “Padarkush” yoxud o’qimagan bolaning holi to’g’risida so’z boradi. Jadid bobomiz o’qimagan bola o’z otasining qotiliga aylanishi va jamiyatning o’z qobig’iga o’ralib qolishi haqida aniq bayon etgan. Xamza Hakimzoda Nizoyiyning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbanalari” yoshlari muhabbat, ilmsizlik, johillik, ota-onalar o’z farzandlarini tushunmasligi, Abdulla Avloniyning “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” turkumi ham millatni bir dam bo’lishga, hijron, hayot-u ruh kerakmas-jismidan bezor-biz, millat, degan so’zlar shior. Avaz O’tar yoki shu qarashlari uchun xonning buyrug’iga ko’ra 50 darra uriladi; “ochinglar, millati vayronni obod etgusi maktab, o’qusin yoshlarmiz ko’ngilni shod etgusi maktab, har tilni biluv emdi bani odamajandir, til vositai robitai olamiyondur”, deganda naqadar haq edi. Xatto, Muhammad Sharif So’fizoda “qadrингизи bilmadi debonalar, qumri bilan bulbul-u bedonalar, yaxshi o’qur, siz ham o’qing, onalar” ga da’vat etishi, kelajak avlodni tarbiya etayotgan onalarga qarata xitob qiladi. Abdurauf Fitrat 1909-yilda o’zining bir necha xamshaharlari bilan birgalikda Istanbulga o’qishga ketadi. Shu tufayli ham Fitrat o’z davrining Ismoil Gasprinskiy, Mahmudxo’ja Behbudiy, Is’hoqxon Ibrat, Abdulla Avloniy singari fidoiyilar tutgan yo’ldan bordi. Ammo o’sha davrlarda barcha jadid bobolarimiz asos solgan gazetalar, yaratilgan darsliklar, sahna asarlari chor hukumatiga yoqmas edi. Xozirgi biz yashayotgan zamonni ularni orzu qilganlar. Yuragimizda ajdodlarga munosib bo’lishga katta umidlar bor. Muxtasar aytganda, bosib o’tmoqchi bo’lgan yo’l boshidamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar ro’yxati:

1. Faxriyor, <<Ayolg’u>>, Toshkent, <<Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh taxririyati 2000,
2. Islom Karimov, <<Yuksak ma’naviyat yengilmas-kuch>>, Toshkent, 2013,
3. O’zbekiston Tarixi, Umumiy o’rta ta’lim makatablarining 8-sinf uchun darslik, qayta ishlangan va to’ldirilgan 4-nashri.
4. axborot.uz